



**O'ZBEK TILINING JAHON HAMJAMIYATIDA TUTGAN O'RNI
(NUTQ RAVONLIGIGA PUTUR YETKAZUVCHI ASOSIY OMILLAR)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847458>

Qobilov Mirziyo Eshnozari o'g'li,

*Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
mirziyo@tersu.uz*

Mamayusupova Nilufar Jo'ra qizi

*Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zligimiz timsoli hisoblangan o'zbek tili hamda nutqimiz ravonligiga putur yetkazuvchi asosiy omillar haqida so'z boradi. Nutq so'zlash davomida ma'lum me'yorlarga amal qilish haqida aytib o'tiladi.*

Kalit So'zlar: *Til, varvarizm, vulgarizm, konselyarizm, parazit so'zlar.*

**THE PLACE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE WORLD COMMUNITY
THE MAIN FACTORS THAT DAMAGE SPEECH FLUENCY**

Qobilov Mirziyo Eshnozariyevich

*Lecturer, Department of Uzbek linguistics,
Termez State University. mirziyo@tersu.uz*

Mamayusupova Nilufar Jo'rayevna

*Termiz State University
Faculty of Uzbek Philology
1st stage student*

Abstract: *This article talks about the main factors that affect the fluency of our Uzbek language, which is considered a symbol of our independence, and our speech. During the speech preparation, it is mentioned about following certain norms.*

Key Words: *Language, barbarism, vulgarism, councilorism, parasitic words.*

O'zbek tili - o'zligimiz timsoli. Millatimiz ko'rki hisoblangan tilimiz qadim zamonlardan buyon hozirgi kungacha o'z mavqeyini yo'qotmay kelyapti. Bu milliy tilimiz Nodiralalar, Anbar Otinlar, Huvaydo-yu Uvaysiyalar tilidir. Dunyoda xalq borki, u o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib ma'lum bir yutuqlarga erishadi. Har bir xalq o'zi yaratayotgan moddiy ne'matlar bilan faxrlanishga haqli. Ammo tabiatda shunday boylik borki, unga ega bo'lmasdan, avaylab-asramasdan, rivojlantirmasdan turib kamolotga erishib bo'lmaydi. U ham bo'lsa, millatga berilgan ulug' ne'mat - tildir.



Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".⁴³

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Bu olijanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak"⁴⁴

Tilimiz shunday go'zal tilki, biz unda otamiz-u onamizni betakror nomlar bilan atay olamiz, yaqinlarimiz mehrini ba'zan so'z orqali his qilamiz. Dunyodagi qadimiy va yuksak o'tmishga ega tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida benihoya muhim o'rin egallab kelayotgan g'oyat yuksak qadriyatdir.

Nutq, nutq odobi insonning manaviyatini - ma'rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Demak kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos holda adabiy meyordagi ifodalar bilan yetkazishdir.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, til inson uchun berilgan buyuk ne'mat, u milliy madaniyatning ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U nafaqat aloqa quroli, balki inson shaxsini fazl-u kamolga yetkazuvchi, uning xulqi-odobi, insoniy xislat va fazilatlari uyg'unligini ta'minlovchi ibrat va tarbiya manbai hamdir. Zero, u xalqqa kuch-quvvat, ruhiy barkamollik bag'ishlaydi. Undan tashqari til inson faoliyatida borliqni bilish, fikr almashish, jamg'arilgan bilimlarni avloddan avlodga yetkazish vositasidir. Tilda millatning bor-yo'g'i, o'y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg'ulari aks etadi. Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi.

O'zbek tili nafaqat jozibador til, balki boy til. Bizning bobolarimiz Navoiylar, Lutfiylar, Atoiylar qalam tebratgan bu til shu holatida ham boy u chetdan kirgan so'zlarga muhtoj emas. Buyuk yozuvchi va adibimiz Abdulla Qodiriy "O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zlari kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar", - degan edilar.

Insonni kiyinishi yoki tashqi ko'rinishining orastaligi uning hayotdagi tutgan o'rnini belgilashi mumkinligini inkor etmagan holda, omma tomonidan nutqning orastaligiga bo'lgan e'tibor chetda qoladi. Holbuki, hattoki e'tiborsiz shaxslarni ham ravon nutq egalarining jozibasi jalb eta oladi va beixtiyor ularga ergashish tendensiyasi namoyon bo'ladi. Ravon, aniq va ifodali nutqning har qanday husndan ortiqroq maftunkorlik xususiyati mavjuddir. Ayrim insonlarni eshitsang, nogoh so'zlarining jodusiga cho'mib, aytganlarini bajarishga intilasan. Boshqa bir

⁴³ <https://unicon.uz/uz/news/346>

⁴⁴ <https://president.uz/oz/2953>



toifadagilarning esa aytayotganlari qanchalik haq va mazmunli bo'lmasin, unga amal qilgning ham, haq deb tan olgning ham kelmaydi, kishi.

So'zlayotgan har bir so'zimiz ifodali, jarangli, shu bilan birga, mazmundor bo'lishi uchun nutqimizga zarar yetkazuvchi vositalardan holi bo'lishimiz darkor. Aks holda, nutqimiz barchaga birdek manzur bo'lmaydi, balki tinglovchilarda ham qiziqishni so'nadi. Eng birinchi navbatda esa o'zligimiz ramzi bo'lgan o'zbek tilimizga bo'lgan behurmatlik hisoblanadi.

Nutqning ravonligiga putur yetkazadigan 5 ta asosiy omil mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Parazit so'zlar yoki ifodalardan haddan ziyod ko'p iste'molda qo'llash;

(Ularning tez-tez takrorlanishi so'zlovchining nutqidagi bo'shliqlarni to'ldirishga yordam berishi barobarida, uning qayta-qayta takrorlanishi suhbatdoshni chalg'itib, uni parazit so'zlarni sanashga undab, natijada muloqotda aytilmoqchi bo'lgan fikr umuman diqqat markazidan chiqib ketadi).

Misol tariqasida, *Said Ahmad o'z asarida qo'llagan ""Xo'jayin, shu, shu, desangiz. Shu... bizdi mashina dovoning naryog'ida, shu, radiatori teshilib, shu, qolib ketibdi"* gapini keltirib o'tishimiz mumkin. Bu gapda "shu" so'zining tez-tez takrorlanishi so'zlovchi gapiga salbiy ta'sir etyapti.

2. Nomaqbul iboralar (so'kinish, qarg'ish, haqorat, jargon so'zlar)ning nutqda uchrashi;

(Nomaqbul iboralar va ravon nutq bir-biroviga zid tushunchalar bo'lib, bu kabi iboralar faqatgina ziyolilarni tanqid qiluvchi ma'lum ijtimoiy qatlam vakillarining so'zlashuv quroli hisoblanadi).

3. Nutqning haddan ziyod uzun va davomliligi;

(Me'yor darajasiga nisbatan uzun gaplar va uzoq davom etuvchi nutqlar tinglovchini ma'lumotning egasini, kesimini va umuman ko'zlanayotgan maqsadini anglashga to'sqinlik qiladi. Muloqotni boshidayoq chalkashib ketgan suhbatdosh, tabiiyki, zerikadi va muloqot oxiriga yetmasdanoq chekinadi).

4. So'z boyligining juda ozligi yoki, aksincha, faqat ma'lum sohaviy terminlardan ko'p foydalangan holda gapirish;

(Berilayotgan ma'lumotning odatiy bo'lmagan, lekin tilga xos bo'lgan qandaydir boshqacha usulda taqdim etilishi aniq suhbatdoshning diqqatidan chetda qolmaydi. Lekin faqatgina tor sohaga doir iboralarni qo'llab fikrni ifoda etish tinglovchini toliqtiradi hamda ma'lumotni qabul qilish ishtiyoqini so'ndiradi)

5. Ovozning juda baland tembrda bo'lishi;

(Bunda, tabiiyki, o'ta past ovozda gapirish ilgari surilayotgani yo'q. Chunki juda sust ovoz ham ishonchsizlik ishorasi sanalib, suhbatdoshda ayrim ikkilanish hisini uyg'otadi, ammo ovoz tembrining quyi ohanglarda bo'lishi, albatta, berilayotgan ma'lumotning ta'sirli bo'lishiga astoydil yordam beradi).⁴⁵

⁴⁵ <https://yuz.uz/uz/news/nutqni-ravonligiga-putur-etkazadigan-asosiy-besh-omil>



Chiroyli va mazmunan boy nutqi hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, g'ayriadabiy til unsurlaridan holi bo'lishiga qarab baholanadi. Nutqning toza bo'lishiga halaqit beruvchi unsurlar: dialektizm va varvarizm hisoblanadi. Zero, ushbu unsurlar badiiy adabiyotda ma'lum bir badiiy - estetik vazifani bajarsa-da, O'qituvchining dars jarayonidagi va tarbiyaviy faoliyatidagi nutqida ishlatilmasligi lozim. O'qituvchi doimiy ravishda idoraviy atamalarni, rasmiy so'z va iboralarni noo'rin ishlatishi o'z nutqining notabiyligiga, ishonchsiz chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida o'qituvchi tomonidan ishontirish metodi orqali qoilaniladigan fikrlar mukammal bayon etilmaydi. So'zlovchi tilni qancha chuqur bilsa va unda so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, uning tafakkuri shunchalik boy bo'ladi. So'z barcha dalillar, barcha fikrlar libosi, o'qituvchi nutqining esa poydevori hisoblanadi. Hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish lozim. Zero, dunyoda so'z mulkidan ham ortiq va qimmatli xazina yo'qligini Sharq mutafakkirlari o'zlarining adabiy meroslarida ham bayon etganlar. Nutq ravonligiga putur yetkazuvchi asosiy omillar: varvarizm, vulgarizm, konselyarizm hamda shu kabi vositalardir. Varvarizm - muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi, vulgarizm esa haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar hamda konselyarizm o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish demakdir. Ushbu vositalar nutqning sofligiga putur yetkazadi. Kishi nutqining sofligi uning ma'naviy-ma'rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko'rsatkichlardan biridir. Haqiqiy so'zlovchining nutqi til qudratini namoyon qila olishi nihoyatda zarur jarayon. Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida shunday yozadi: *"Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul chiqsa, tilning ofatidir"*. Tilimiz nutq uchun qurol hisoblanar ekan, uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo'ladi. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati, asosan, kamoning qobiliyatiga bog'liq. Kamon qanchalik mustahkam bo'lsa, mo'ljalga bexato uradigan bo'lsa, tilning ya'ni o'qning qudrati shunchalik yaqqalroq namoyon bo'ladi.

Tabiiyki, nutqqa olib kiriladigan har bir so'z va ibora, albatta, «ishlashi», muayyan ma'noni ifodalash uchun xizmat qilishi kerak. Nutq tarkibiga olib kirilgan so'z yoki ibora nutqning mazmuniy qurilishi uchun bir «g'ishtcha» bo'lmasa, u nutq uchun ortiqcha yuk, demakki, nutqning sofligiga halal beradigan keraksiz unsurga aylanadi. Tilshunoslikda parazit so'zlar deb ataladigan bunday birliklar ko'proq og'zaki nutqda kuzatiladi. Aytilmoqchi bo'lgan fikrni yetarli darajada aniq tasavvur qilmaslik, fikrlar o'rtasidagi tizimli munosabat idrokining yetishmasligi, fikrning quyilib kelmasligi natijasida nutq oqimida yuzaga keladigan uzilishni, qanday bo'lmasin, «yopish», tegishli uyg'un ifodani o'ylab topish uchun ketadigan vaqtda nutqning yaxlitligini ta'minlash ehtiyoji bilan bog'liq holatda *e-e-e, hm-m-m, he-ye-ye kabi tovush «oqim»lari, xo'-o'-o'sh, haligi, anaqa, masalan, demak, shu, innankeyin, ya'ni, aytaylik, bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang* kabi lug'atlarda aniq ma'nosi mavjud so'z va iboralar ayni ma'nosidan begona qilingan tarzda qo'llanadi. Bunday



qo'llashlar bora-bora nutq tuzuvchida o'ziga xos odatga aylanib qolishi ham mumkin, masalan, kimdir haligi, kimdir demak, yana boshqa birov bildingizmi so'zini og'zaki nutqida parazit so'z sifatida doimiy ishlatadi. Aytish mumkinki, bunday so'zlar u yoki bu notiqning so'zlashuv uslubining o'ziga xos ko'rsatkichi bo'lib qoladi (hatto bu «ko'rsatkich» shaxsning laqabiga aylanib ketishi ham mumkin, masalan, «shu-shu» domla, «xo'sh-xo'sh» usta kabi). Bu, albatta, nutqning sofligini izdan chiqaradi, nutqda ifodalangan informatsiyani qabul qiladigan tinglovchining diqqatini chalg'itadi, nutqning o'z maqsadiga erishishini qiyinlashtiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, gaplarimizning ta'sirli bo'lishida nutqimizning ortiqcha iboralardan xoli bo'lishi, qisqa va lo'nda ma'lumotlarni taqdim etilishi, foydalanilayotgan iboralarning o'rinliliigi va albatta, nutq tonimizning me'yorida bo'lishi asosiy omillardan sanaladi. Bundan tashqari yana shuni ham aytib o'tishimiz lozimki, istiqbolli muammolarning yechimiga zamon talablari asosida, davrga hamohang munosabatda bo'lish, maqsadli va samarador masalalar bilan shug'ullanish har doim ham taraqqiyotni belgilovchi asosiy omillardan bo'lgan. Qayd etib o'tilgan muammolar yechimida ham mutaxassislar faoliyatini uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy muassasalardagi tuzilma va bo'limlar maqsad hamda vazifalarini qayta belgilash, istiqbolli muammolar bilan shug'ullanuvchi bo'lim, markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish zarur ekanligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N, Odilov Y, Ziyodullayeva G "Ona tili" 11-sinf 1-qism. Toshkent, 2018.
2. Xoliqov A "Pedagogik mahorat". Toshkent, 2011.
3. Qobilov M.E, Xolnazarov U. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari hozirgi o'zbek tilining o'z qatlamini boyitish manbasi sifatida / Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar: muammo va yechimlar. – Andijon, 2020. B. 912
4. Qobilov M.E. The place of language 1 and language 2 neologisms in enrichment of uzbek lexicon // World scientific research journal, Volume 6, Issue-1, / August, 2022. – 104 b. 2181-3116, 2181-3108
5. Eshnozar o'g'li Q. M. Mahmud Kashgari's work" Devonu Lugatit Turk" as a source of enrichment of the current Uzbek language //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 10. – C. 17-18.